



TALABALAR UCHUN RAQAMLI TO'LOV VOSITALARINI O'RGANISH – MOLİYAVIY BARQARORLIK SARI QADAM

Foziljonova Niholaxon Fayoz qizi,

niholakhon06@gmail.com

Annotatsiya. Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda talabalar orasida raqamli to'lov vositalaridan foydalanish tobora kengaymoqda. Ushbu maqolada elektron hamyonlar, internet banking va QR-to'lovlar kabi raqamli moliyaviy vositalarning talaba yoshidagi foydalanuvchilarning moliyaviy barqarorligi va savodxonligiga ta'siri o'rganiladi. Tadqiqot davomida xorijiy tajribalarga tayanilgan holda ikkilamchi ma'lumotlar tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamli to'lov tizimlari qulaylik yaratishi bilan birga, ortiqcha xarajat, byudjetlashtirish madaniyatining yetishmasligi va raqamli xavfsizlik borasida muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun moliyaviy savodxonlikka oid maxsus dasturlarni joriy etish hamda foydalanuvchiga moslashtirilgan ilova funksiyalarini ishlab chiqish tavsiya etiladi. Umuman olganda, maqolada talabalar orasida mas'uliyatli raqamli moliyaviy xatti-harakatlarni shakllantirish va uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ta'minlash zarurligi ta'kidlanadi.

Abstract. In the context of rapid digitalization, the use of digital payment tools among university students is expanding significantly. This paper explores how digital financial instruments—such as mobile wallets, internet banking, and QR payments—contribute to the financial stability and literacy of students. A combination of secondary data analysis and literature review was employed, drawing from international practices due to limited local datasets. The study reveals that while digital payment systems offer convenience and accessibility, they also pose risks such as overspending, lack of budgeting habits, and insufficient awareness of digital security. Based on the analysis, the paper suggests that targeted



financial education programs and user-oriented app features could mitigate these issues. The findings highlight the need for integrated strategies that promote responsible digital financial behavior and support students' long-term financial well-being.

Аннотация. В условиях стремительной цифровизации использование цифровых платежных инструментов среди студентов университетов значительно расширяется. В данной статье рассматривается, как цифровые финансовые инструменты, такие как мобильные кошельки, интернет—банкинг и QR—платежи, способствуют финансовой стабильности и грамотности студентов. Из-за ограниченности местных наборов данных мы использовали комбинацию вторичного анализа данных и обзора литературы, опираясь на международную практику. Исследование показывает, что, хотя цифровые платежные системы обеспечивают удобство и доступность, они также сопряжены с такими рисками, как перерасход средств, отсутствие навыков составления бюджета и недостаточная осведомленность о цифровой безопасности. На основе проведенного анализа в документе предполагается, что целевые программы финансового образования и ориентированные на пользователя функции приложений могут смягчить эти проблемы. Полученные результаты подчеркивают необходимость комплексных стратегий, способствующих ответственному поведению в сфере цифровых финансов и поддерживающих долгосрочное финансовое благополучие учащихся.

Kalit so‘zlar: raqamli moliya, moliyaviy savodxonlik, talabalar, mobil to‘lovlar, moliyaviy barqarorlik

Kirish. So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarning keskin rivojlanishi natijasida moliyaviy xizmatlar sohasi ham tubdan o‘zgarib, an’anaviy to‘lov



vositalarining o'rnini raqamli to'lov tizimlari egallay boshladi. Ayniqsa, yoshlar, xususan, talaba yoshidagi fuqarolar yangi moliyaviy texnologiyalarni o'zlashtirishda yetakchi kuch sifatida ajralib turmoqda. Raqamli to'lov vositalari (mobil to'lov ilovalari, onlayn bank xizmatlari, QR-kodli tranzaksiyalar, elektron hamyonlar va boshqalar) moliyaviy xizmatlardan foydalanishni soddalashtirish, vaqt va mablag'ni tejash, xavfsizlik darajasini oshirish kabi qator afzalliklarga ega. Xalqaro tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli to'lov tizimlari talabalarga nafaqat kundalik to'lovlarni qulay amalga oshirish, balki ularning moliyaviy savodxonligi va barqarorligini oshirishda ham muhim rol o'ynaydi. Biroq bu imkoniyatlardan to'laqonli foydalanish darajasi mamlakatlar kesimida turlicha bo'lib, mavjud ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, infratuzilma va bilim darajasiga bevosita bog'liq. Mazkur tadqiqot talabalarning raqamli to'lov vositalaridan foydalanish darajasini, bu vositalarning ularning shaxsiy moliyaviy barqarorligiga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganishga qaratilgan. Shuningdek, ilmiy maqolada mavjud imkoniyatlar, muammolar va yechimlar tahlil qilinadi hamda talabalar uchun moliyaviy mustaqillik sari yo'l ochuvchi raqamli xizmatlardan oqilona foydalanish yo'llari muhokama qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, raqamli to'lov texnologiyalari jamiyatning turli qatlamlari orasida jadal rivojlanib borayotgan bir davrda, yosh avlodning bu texnologiyalarni to'g'ri va samarali qo'llay olishini ta'minlash kelajakdagi iqtisodiy barqarorlikning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda raqamli to'lov vositalarining talabalar moliyaviy barqarorligiga ta'sirini o'rganish maqsadida ikkilamchi manbalarni tahlil qilishga asoslangan ilmiy yondashuv tanlandi. Mazkur metodologik yondashuv orqali mavjud xalqaro tajribalar, statistik ma'lumotlar va ilmiy manbalar asosida mavzuga nisbatan chuqur va tahliliy qarash shakllantirildi. Bu yondashuv, ayniqsa, O'zbekistonda mavzu doirasida yetarlicha empirik ma'lumotlar mavjud emasligi sharoitida, dolzarb va asosli yechimlar ishlab chiqish



imkonini berdi. Tadqiqotda deskriptiv (tasviriy) metod asos qilib olindi. Asosiy e'tibor xalqaro miqyosda olib borilgan izlanishlar va nufuzli tashkilotlar – xususan, Jahon banki, OECD, Statista, Pew Research Center kabi muassasalarning ochiq ma'lumotlariga qaratildi. Bu manbalar orqali talabalar orasida raqamli to'lov vositalarining qo'llanilish darajasi, moliyaviy savodxonlik bilan bog'liqligi va raqamli to'lov texnologiyalarining talaba hayotidagi roli haqida muhim xulosalar chiqarildi. Tadqiqot doirasida AQSh, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya va Malayziya kabi raqamli to'lov infratuzilmasi rivojlangan davlatlar tajribasi tahlil qilinib, ularning umumiy tendensiyalari aniqlashga harakat qilindi. Ma'lumotlar tahlili mavzuviy (tematik) yondashuv asosida amalga oshirildi. Tanlangan manbalarda ilgari surilgan asosiy g'oyalar umumlashtirilib, ularning o'zaro bog'liqligi ochib berildi. Shu bilan birga, talabalarining moliyaviy barqarorligini oshirishda raqamli to'lov vositalarining qanday rol o'ynashi, qanday imkoniyat va xavf-xatarlarni yuzaga keltirishi aniqlab berildi. Xorijiy tajriba va ishonchli statistik ma'lumotlarga tayanish orqali ushbu tadqiqot mavzuga nisbatan asosli va nazariy jihatdan mustahkam tahliliy yondashuvni shakllantiradi.

Natijalar. Tadqiqotda foydalanilgan xorijiy statistik manbalar asosida bir nechta asosiy natijalar aniqlanadi, ular talabalar moliyaviy barqarorligiga raqamli to'lov vositalari orqali qanday ta'sir ko'rsatishini tasvirlaydi.

Raqamli hamyonlarning keng tarqalishi. 2023-yilda dunyo bo'ylab 3,4 milliard raqamli hamyon foydalanuvchisi mavjud edi, bu taxminan global aholining 42 % ga teng. Ayni davrda Amerikada 65 % kattalar kamida oyiga bir marotaba raqamli hamyondan foydalangan, va, ayniqsa 18–26 yoshdagi yoshlar orasida bu ko'rsatkich 91 % ga yetgan.

POS va onlayn tranzaksiyalarda raqamli to'lovlar hissasi. 2023-yilda global POS (do'kon to'lov) tranzaksiyalarining 30 % raqamli hamyonlar orqali amalga



o'shirilgan. Onlayn xaridlar bo'yicha esa raqamli hamyonlar umumiy tranzaksiyalarning 50 % ini tashkil qilgan.

3.3 Yoshlar — eng faol foydalanuvchilar

Guruh Raqamli hamyondan foydalanish (%)

18–26 yosh 91 %

27–42 yosh 59 %

43–58 yosh 50 %

Bu ko'rsatkichlar yosh avlodning raqamli to'lov tizimlariga yuqori darajada moslashuvini ko'rsatadi.

Moliyaviy barqarorlik va tejash imkoniyatlari. Global Findex tadqiqotlarida raqamli to'lov vositalari orqali moliyaviy xizmatlarga kirish imkoniyati oshgani, bir vaqtning o'zida xarajatlarni 20–67 % ga kamaytirish imkoniyati mavjudligi ta'kidlangan. Raqamli hamyondan foydalanuvchilar kredit/debet karta foydalanuvchilariga nisbatan o'rtacha 12,8 % ko'proq, naqd pul foydalanuvchilariga nisbatan esa 51,1 % ko'proq sarflagani aniqlangan.

Xavfsizlik va qulaylik. AQShda foydalanuvchilarning 80,6 % i tezlik, 76,9 % i esa qulaylik uchun raqamli hamyondan foydalanadi. Raqamli to'lovlarga ishonch darajasi 2022 yildagi 25 % dan 2023 yildagi 21 % ga tushgan — ya'ni foydalanuvchilarning xavfsizlik haqida kamroq xavotirga berila boshlaganini bildiradi.

Munozara. Tadqiqot natijalari raqamli to'lov vositalarining ayniqsa yoshlar, xususan talabalar moliyaviy faoliyatida asosiy o'rin egallayotganini ko'rsatdi. Ushbu tendensiya nafaqat texnologik taraqqiyot bilan, balki iste'molchilarning qulaylik, tezlik va xavfsizlikka bo'lgan ehtiyoji bilan ham bog'liqdir. Xususan, 18–26 yoshdagi foydalanuvchilarning 91 % dan ortig'i raqamli hamyonlardan



foydalanganini hisobga olsak, talaba yoshidagi fuqarolar uchun bu vosita kundalik moliyaviy hayotning ajralmas qismiga aylangani ayon bo'ladi.

Shuningdek, bu vositalarning jadal ommalashuvi ularning nafaqat iste'molchi xulq-atvoriga, balki ularning moliyaviy barqarorligiga ham ta'sir ko'rsatayotganini ko'rsatadi. Masalan, raqamli hamyonlar orqali amalga oshirilgan sarflar miqdorining yuqoriligi ko'plab foydalanuvchilar uchun moliyaviy mas'uliyat hissini kuchaytirishni taqozo etmoqda. Har qanday qulaylik o'ziga xos xavflarni ham keltirib chiqaradi — bu holatda masalan, nazoratdan chiqqan sarf-harajatlar, qarzga kirish xavfi yoki impulsiv xaridlar kabi salbiy oqibatlar yuzaga chiqishi mumkin. Shu bois, rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida quyidagi muhim fikrlarni alohida ta'kidlash mumkin:

1. Moliyaviy savodxonlikni oshirish: Raqamli to'lovlardan foydalanuvchi yoshlar sonining o'sishi moliyaviy mas'uliyatni ham o'z ichiga oladi. Rivojlangan davlatlarda raqamli to'lov vositalarini joriy etish bilan birga, moliyaviy savodxonlik dasturlari ham kengaytirilgan. Masalan, AQSh va Yevropa davlatlarida talabalarga xarajatlarni rejalashtirish, byudjet tuzish va raqamli xavfsizlik bo'yicha maxsus treninglar o'tkaziladi.

2. Regulyator nazoratini kuchaytirish: Digital wallet va boshqa fintech xizmatlar orqali amalga oshirilayotgan to'lovlarning hajmi ortar ekan, hukumatlar ushbu vositalarni tartibga solish bo'yicha huquqiy mexanizmlarni kuchaytirishga intilmoqda. Bunday yondashuv, bir tomondan, iste'molchilarni firibgarlikdan himoya qilishga, ikkinchi tomondan esa raqamli moliyaviy xizmatlarning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

3. Raqamli texnologiyalar orqali tejashni rag'batlantirish: Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, agar raqamli to'lov ilovalari foydalanuvchilarga o'z xarajatlarini monitoring qilish imkonini beruvchi funksiyalarni taklif qilsa (masalan, oylik byudjet hisobotlari, tejash rejalari), bu foydalanuvchilarning



moliyaviy intizomini oshiradi. Bu kabi funksiyalar yosh foydalanuvchilarni faqat sarflashga emas, balki tejamkorlik va sarmoya kiritishga ham undaydi.

4. O'zbekiston uchun muhim xulosa: Raqamli to'lov tizimlari mamlakatimizda ham keng ommalashmoqda. Xususan, "Click", "Payme", "Apelsin" kabi ilovalar kundalik to'lovlar uchun asosiy vositaga aylangan. Shu sababli, biz ham xorijiy tajribalardan foydalanib, raqamli moliya vositalarining foydali jihatlarini kuchaytirish va salbiy oqibatlarining oldini olish bo'yicha kompleks yondashuvni yo'lga qo'yishimiz zarur. Talabalar uchun maxsus raqamli moliyaviy rejalashtirish ilovalari, byudjet tuzish ko'nikmalari va moliyaviy ma'lumot beruvchi kontentlar ishlab chiqilishi lozim.

Xulosa va tavsiyalar. Mazkur tadqiqot raqamli to'lov vositalarining talaba yoshidagi foydalanuvchilar moliyaviy hayotidagi o'rni va ularning moliyaviy barqarorligiga ta'sirini o'rganishga qaratildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, zamonaviy raqamli to'lov vositalari, xususan raqamli hamyonlar, mobil banking va QR-to'lovlar, talabalar orasida keng qo'llanilmoqda. Bu vositalarning qulayligi, tezligi va 24/7 ishlash imkoniyati ularni kundalik moliyaviy amaliyotning ajralmas qismiga aylantirgan. Biroq, raqamli moliya texnologiyalari faqat imkoniyat emas, balki muayyan xavflarni ham o'z ichiga oladi. Xususan, moliyaviy nazoratning yetishmasligi, impulsiv xaridlar, vaqti-vaqti bilan hisobdan chiqib ketish yoki sarmoya qilish o'rniga ortiqcha xarajatlar qilish holatlari ham sodir bo'lmoqda. Shu sababli, talabalarining raqamli moliya vositalaridan foydalanganda ham moliyaviy savodxonlik va mas'uliyatli yondashuv asosida harakat qilishi zarur.

Ushbu holatni inobatga olgan holda, quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

1. Talabalar uchun moliyaviy savodxonlik bo'yicha onlayn kurslar va treninglar joriy etilishi zarur. Bu kurslarda byudjet tuzish, raqamli xavfsizlik, tejash strategiyalari, sarmoyaviy fikrlash bo'yicha bilimlar berilishi lozim.



2. Raqamli to'lov ilovalariga foydalanuvchi byudjetini tahlil qiluvchi va tejashni rag'batlantiruvchi funksiyalar integratsiya qilinishi foydali bo'ladi. Masalan, "oylik xarajat limiti", "maqsadli tejash", "foydalanuvchi moliyaviy sog'lig'i bo'yicha tahlil" kabi funksiyalar talabalar uchun foydali bo'lishi mumkin.

3. Raqamli to'lov vositalarining tartibga solinishi bo'yicha davlat nazorati kuchaytirilishi kerak. Ayniqsa, yoshlar segmenti uchun reklama siyosati, foydalanuvchi ma'lumotlarining himoyasi va texnik xavfsizlik protokollarining oshirilishi muhimdir.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, raqamli to'lov vositalarining to'g'ri va mas'uliyatli qo'llanilishi nafaqat talabalarning moliyaviy faoliyatini soddalashtiradi, balki ularni uzoq muddatli moliyaviy barqarorlik sari yetaklaydi. Bu esa kelajakdagi iqtisodiy ishonchlilik va o'zini-o'zi ta'minlash madaniyatining shakllanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

RO'YXATI

1. Capital One Shopping. (2023). Digital Wallet Statistics: Usage, Market Trends, and Growth. <https://capitaloneshopping.com/research/digital-wallet-statistics/>
2. Fitsmallbusiness. (2023). Digital Payment Market Growth Statistics. <https://fitsmallbusiness.com/digital-payment-market-growth/>
3. Kapcharge. (2023). The Rise of Digital Wallets in North America. <https://kapcharge.com/the-rise-of-digital-wallets-in-north-america/>
4. World Bank. (2022). The Global Findex Database 2021: Financial Inclusion, Digital Payments, and Resilience in the Age of COVID-19. <https://www.worldbank.org/en/publication/globalfindex>
5. OTT Pay. (2023). What Is a Mobile Wallet? The Rise of Digital Payments. <https://ottpay.com/what-is-a-mobile-wallet/>



6. Nimble AppGenie. (2023). E-Wallet App Statistics: Market Growth, Usage & Features. <https://nimbleappgenie.com/ewallet-app-statistics>
7. PeakSpan Capital. (2023). Digitizing Your Pocket: 50+ Stats on the Emerging Dominance of Digital Wallets. <https://www.peakspancapital.com/insights/digitizing-your-pocket-50-stats-underscoring-the-emerging-dominance-of-digital-wallets/>